**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali**

# “Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” moduli

## 4-Mavzu:

Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish



# Reja:

1. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo‘lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish.

2. On-line tizimlar va ulardan foydalanish.



# Axborot qidirish tizimi




Internet tarmog‘idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘lgan biror ma’lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Internet tarmog‘i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan Web-saytlar, ularning manzili va ichki ma’lumotlari bo‘yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Internet tamog‘i shunday bir muhitki u o‘zida turli ko‘rinishdagi va turli tillardagi ko‘plab axborotlar toplamini jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo‘lgan ma’lumotlami qidirib topish muammosi paydo bo‘ladi. Internet tarmog‘ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so‘zdan tashkil topgan so‘rovlardan foydalanadi. Ya’ni ma’lumotlami uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so‘zlar va jumlalar bo‘yicha qidirib topish mumkin.

# Axborotni parametrlari bo‘yicha qidirish.




Har bir foydalanuvchi Internet tarmog‘i orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlami uning mavzusi hamda tarkibidagi so‘z yoki jumla bo‘yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog‘ida ma’lumotlar shunchalik ko‘pki, ta’kidlab o‘tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo‘shimcha usullari bo‘yicha qidiruvni taqdim etadi, bular:



Ma’lumotlarni uning tili bo‘yicha qidiruv;



Ma’lumotlarni uning turi (matn, rasm, video) bo‘yicha qidiruv;



Ma’lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo‘yicha qidiruv;



Ma’lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo‘yicha qidiuv;




Ma’lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo‘yicha qidiruv;



Ma’lumotlarni xavfsiz qidiruv.

# Mashhur internet qidiruv tizimlari




Hozirgi kundagi eng ommabop qidiruv tizimlari.

www.google.com — oyiga 1,6 milliard har xil foydalanuvchilar tomonidan tashrif buyurilgan.

www.bing.com — oyiga 400 million har xil foydalanuvchilar tomonidan tashrif buyurilgan.

www.yahoo.com — oyiga 300 million har xil foydalanuvchilar tomonidan tashrif buyurilgan.

www.ask.com — oyiga 245 million har xil foydalanuvchilar tomonidan tashrif buyurilgan

# Milliy qidiruv tizim



# WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi

www.uz - bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog‘idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy xususiyatlaridan biri uning ko‘p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o‘zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma’lumot omborlari bilan o‘zaro ishlay olishidadir.

# WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimini qulayliklari.

Internet tarmog‘i foydalanuvchilariga milliy segmentda joylashgan Web-saytlar bo‘yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni Web-sayt manzili va ichki ma’lumotlari bo‘yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi.

Qidiruv tizimi Internet resurslari (Web-saytlari) katalogini va Web-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo‘yicha jamlangan statistik ma’lumotlami to‘playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi.

“Katalog” bo‘limi - Internet tarmog‘ida ochiq holda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasiga aloqador bo‘lgan, ro‘yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo‘yicha saralangan Web-saytlar to‘plami.

Katalogi foydalanuvchilari o‘zlariga kerak bo‘lgan saytni mavzular bo‘yicha (lqtisod. OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi.

# Online internet xizmatlari

## Google Drive

Google Drive, nomidan ko‘rinib turibdiki, Google-ning bulutli saqlash xizmati. Agar biz Gmail foydalanuvchisi bo'lsak, Google avtomatik ravishda Google Drive orqali bizga 15 GB bo‘sh joyni taqdim etadi, shuning uchun agar bizda Gmail hisob qaydnomasi bo‘lsa, ushbu xizmatga ro‘yxatdan o‘tishning hojati yo‘q. Google Drive internet bozorida mavjud bo‘lgan barcha platformalar uchun, ish stoli yoki mobil qurilmalar uchun mavjud, shuning uchun bulutdagi ma’lumotlarimizga kirish hech qachon muammo bo‘lmaydi.


Drive
Buscar en Drive
Mi unidad
Nuevo
Acceso rápido
Mi unidad
Ordenadores
Compartido conmigo
Reciente
Destacado
Papelera
Copias de seguridad
Almacenamiento
14,9 GB de 17 GB usado
ADQUIRIR MÁS ALMACENAMIENTO
Lo has editado este mes
Editado hoy por Mª José
Sin título 2.xlsx
Lo has abierto este mes
Carpetas
Nombre
Autobus Oratorio
Certificado Betas i...
Endurance.app
Filebot
Flechazo

# Google Drive nima uchun kerak?

Goole Drive, aksariyat bulutli saqlash xizmatlari singari, bizda mavjud bo‘lgan barcha hujjatlarni o‘zimizda, aksincha smartfonimizda olib yurishimizga imkon beradi. Biron bir vaqtda maslahatlashish yoki tahrirlash kerak bo‘lsa onlayn tarzda bajarishimiz mumkin. Bundan tashqari, Google Drive biz uchun matnli hujjatlar, elektron jadvallar va taqdimotlarni yaratish uchun bir qator dasturlarni taqdim etadi, garchi u foydalanadigan format Microsoft Office va Apple iWork kabi boshqa dasturlarga mos kelmasa ham, bu har doim hujjatlarni yaratish uchun ushbu turdagi dasturlardan foydalanish g‘oyasi, ularni taqdim etishdan oldin ularni to‘g‘ri formatlashimiz kerak.

Google Drive bizga taqdim etadigan yana bir afzallik, u allaqachon bir nechta foydalanuvchiga bir xil hujjat ustida ishlashga imkon beradi, bu odatda ofisdan uzoqda va uzoqdan ishlaydigan foydalanuvchilar uchun ideal xususiyatdir.

# Google Translate




Google Translate - foydalanuvchilarning ishlatishi uchun eng mashhur onlayn tarjima vositalaridan biridir. Tarjima qilingan matn sifatiga ega bo‘lgan juda ko‘p tillarda tarjima vositasiga aylanmoqda. Google Translate 100 dan ortiq tillarni tarjima qilib berish imkoniyatiga ega va bir vaqtning o‘zida 30 000 belgilari bilan tarjima qilish imkoniyati ham mavjud.




Veb-sahifani saytning URL manzilini ko‘rsatib tarjima qilishingiz mumkin

Veb-sahifalarni avtomatik ravishda Google Chrome qidiruv tizimida Google Translate kengaytmasi qo‘shib tarjima qilish.

Hujjatlarni kompyuteringiz yoki smartfon orqali tarjima qilish oson. PDF, Word kabi fayllarning bir nechta turini tarjima qilish.

# E’tiboringiz uchun rahmat!